



“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash raisi

Sh.A. Ayupov

2026-yil 24-iyul

Fanlar akademiyasi jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash majlisining 1-son BAYONNOMASI

14-iyul 2026-yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.A. Ayupov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash) raisi.

Qatnashdilar:

Kengash a‘zolari, taklif etilganlar (*ro‘yxat bo‘yicha*);
majlisda Kengashning barcha a‘zolari ishtirok etdi. Kengash majlisi vakolatli hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

- 1. Fanlar akademiyasining jamg‘armasini tashkil etish va sarflangan mablag‘lar to‘g‘risida.**
- 2. Fanlar akademiyasining jamg‘arma daromad va xarajatlari yillik parametrlarini (moliyaviy rejasini) tasdiqlash to‘g‘risida.**
- 3. “Reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag‘ ajratish tartibi”ni tasdiqlash to‘g‘risida.**
- 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida Fanlar akademiyasining jamg‘arma mablag‘larini ajratish to‘g‘risida.**

(Ayupov, Ashurov, Jo‘raboyev ... Ayupov)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 27-dekabrdagi PQ - 390 - sonli qaroriga muvofiq:

13 – bandi bilan 2026-yil 1-yanvardan boshlab ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, yosh olimlarni jalb qilish va strategik ahamiyatga ega ilmiy yo'nalishlarni barqaror moliyalashtirish maqsadida Fanlar akademiyasi jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) tashkil etildi;

14 - bandida Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari belgilandi;

15 - bandining b - kichik bandida Jamg'arma mablag'laridan foydalanishning asosiy xarajat yo'nalishlari tasdiqlandi;

17-bandida Jamg'armaga har yili Davlat byudjetidan mablag'lar ajratish Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga ajratiladigan transfertlarni qisqartirish hisobidan amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-mayda 260-son qarori 1-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg'armasi to'g'risida"gi nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) tasdiqlandi.

Nizom bilan Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish, Jamg'arma faoliyatini boshqarish, uning mablag'larini taqsimlash, hisobi va hisobotini yuritish tartibi belgilab qo'yildi.

Jamg'armaning 2026-yilga xarajatlari smetasi ishlab chiqildi va Iqtisodiyot va moliya vazirligida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazildi.

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra Jamg'arma mablag'lari hisobidan **12 593,68 mln.so'm mablag' sarflangan** bo'lib, quyidagi yo'nalishlarga yo'naltirilgan:

Fanlar akademiyasi moddiy rag'batlantirish komissiyasining tegishli bayonnomalari bilan Fanlar akademiyasi boshqaruv apparati va Qoraqolpog'iston bo'limi xodimlarini ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlariga – **11 578,3 mln.so'm**;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli topshiriqlari asosida ilmiy - amaliy konferensiya tadbirlarini o'tkazish uchun chet davlatlarga chiqish bilan bog'liq xorijiy xizmat safarlari va boshqa xarajatlarga – **1013,88 mln.so'm**;

elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalat to'lovini amalga oshirish xarajatlarga – **1,5 mln.so'm**.

Nizomning 24-bandiga muvofiq Fanlar akademiyasining Jamg'arma faoliyatini tashkil etish bo'limi Jamg'armaning ishchi organi (keyingi o'rinlarda – Ishchi organ) hisoblanadi.

Nizomning 25 - bandida Ishchi organning funksiyalari belgilab qo'yilgan.

2. Nizomning:

5-bandida **Jamg'arma mablag'lari Kengash tomonidan tasdiqlangan Jamg'armaning daromad va xarajatlari yillik parametrlariga muvofiq sarflanishi;**

23-bandida **Jamg'armaning daromadlari va xarajatlarining yillik moliyaviy rejasini**, shuningdek, Kengash mablag'laridan foydalanilishini **tasdiqlash** masalalari bo'yicha qarorlar bevosita Kengashning yig'ilishida qabul qilinishi belgilangan.

Mazkur talablardan kelib chiqib, Ishchi organ tomonidan **"Fanlar akademiyasining jamg'arma daromad va xarajatlari yillik parametrlari (moliyaviy rejasini)"** loyihasi ishlab chiqildi.

Loyiha Fanlar akademiyasi prezidentining moliyaviy va xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari **A.Abdukarimov**, Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i **A.Mahammatov** hamda Buxgalteriya bo'limi **M.Yakubova** bilan kelishildi.

Loyiha Kengash majlisida ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun 1 - ilovaga muvofiq kiritilmoqda.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ - 390 - son qarori 7 - ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi **jamg'armasi mablag'lari yo'naltiriladigan xarajatlarni yo'nalishlari**" tasdiqlangan.

Nizomning 6 - bandi talablariga muvofiq **Jamg'arma mablag'lari yo'naltiriladigan xarajatlarni moliyalashtirish tartibi Kengash qarori bilan tasdiqlanishi** belgilangan.

Mazkur talablardan kelib chiqib, xarajatlarni moliyalashtirish tartiblarini ishlab chiqishni tashkil etish maqsadida Fanlar akademiyasi prezidentining 2026 - yil 12 - iyundagi 19 - 77 - son buyrug'i bilan "Fanlar akademiyasi jamg'armasi mablag'lari yo'naltiriladigan xarajatlarni moliyalashtirish tartiblarini ishlab chiqish mexanizmi" tasdiqlangan.

Shunga muvofiq, Ishchi organ tomonidan Moliya - iqtisod bo'limi bilan birgalikda "Reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag' ajratish tartibi" **loyihasi** ishlab chiqildi.

Loyiha Fanlar akademiyasining vitse - prezidentlari, Yuridik xizmat hamda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bosh mutaxassisi bilan kelishildi.

Shu bilan birga, **Ishchi organning taklifiga muvofiq**, Jamg'arma mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida 2026 - yil uchun **dastlabki arizalarni** tashkilotlardan **2026 - yil 28 - iyuldan boshlab** qabul qilishni belgilash taklif etilmoqda.

Loyiha va taklif Kengash majlisida ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun 2 - ilovaga muvofiq kiritilmoqda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlarida nazarda tutilgan ayrim tadbirlarni amalga oshirish xarajatlarini **moliyalashtirish manbai sifatida Jamg'arma mablag'lari** belgilangan. Jumladan:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 - yil 27 - dekabrda PQ - 390 - son qarori 2 - ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 13 - bandiga muvofiq **"Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarining faoliyatini baholash uchun ilmiy faoliyatni baholashning metrik tizimini tashkil etish"** ustuvor vazifasini amalga oshirish xarajatlarini moliyalashtirish manbai sifatida Jamg'arma mablag'lari belgilangan.

***Ma'lumot o'rnida:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ - 390 - son qaroriga 7 - ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamg'armasi mablag'lari yo'naltiriladigan xarajatlar yo'nalishlari"ning 3-bandida "Ilmiy tadqiqot jarayonlarini raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlash, ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun innovatsion axborot texnologiyalarini joriy etish, raqamli arxivlar va ma'lumotlar bazalarini rivojlantirish" xarajat yo'nalishi qayd etilgan.*

Mazkur ustuvor vazifaning ijrosini ta'minlash maqsadida ilmiy faoliyatni baholash tizimini joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli mutaxassis jalb etilgan holda 2026 - yil 8 - yanvarda **ishchi guruh** shakllantirilgan.

Ishchi guruh tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

ilmiy tashkilotlar va ilmiy xodimlar faoliyatini reyting baholash bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilib, uning natijalari asosida **"Ilmiy muassasalar faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha reyting tizimi modeli"** hamda **"Ilmiy xodimlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha KPI tizimini hisoblash va qo'llash metodikasi"** ishlab chiqildi va Fanlar akademiyasi prezidentining 2026-yil 30-martdagi 38 - son buyrug'i bilan tasdiqlandi;

Fanlar akademiyasining 2026-yil 10-martdagi 6/1255 - 635 - son xati asosida axborot tizimlarini ishlab chiqish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlardan olingan "Fan - portal" yagona axborot tizimini takomillashtirish, ilmiy xodimlar va tadqiqotchilar samaradorligini baholash (KPI), ilmiy tashkilotlar faoliyatini metrik baholash orqali reyting modullarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha **tijorat takliflari** o'rganilib, tahlil qilindi hamda uning natijalari asosida **boshlang'ich (dastlabki) narx** shakllantirildi.

Mazkur ishlar yuzasidan batafsil axborot Fanlar akademiyasining Raqamlashtirish va axborot xavfsizligi bo'limi boshlig'i **N.B. Tilovovning** 2026-yil 7-iyuldagi bildirishnomasi bilan **Fanlar akademiyasi prezidentiga** kiritildi.

***Ma'lumot o'rnida:** ilmiy tashkilotlar va ilmiy xodimlar faoliyatini baholashda maqsad va vazifalarni belgilash, ilmiy maqolalar, patentlar, ilmiy grantlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Fanlar akademiyasining "Fan - portali" axborot tizimida jamlash va reyting natijalarini*

shakllantirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqildi hamda Fanlar akademiyasi Prezidiumining 2026-yil 8-iyuldagi 30 - son qarori bilan tasdiqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlari faoliyatini samarali baholashning zamonaviy metrik tizimini yaratish va joriy etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

Fanlar akademiyasining "Fan-portal" axborot tizimi elektron platformasini kompleks takomillashtirish;

ilmiy xodimlar va tadqiqotchilar faoliyati samaradorligini baholashning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimi modulini ishlab chiqish va joriy etish;

ilmiy tashkilotlar faoliyatini metrik baholash asosida reyting tizimi modulini ishlab chiqish hamda joriy etish.

Mazkur ustuvor vazifani amalga oshirish maqsadida belgilangan tartibda xarid jarayonlarini tashkil etish uchun **Jamg'arma mablag'laridan 2,0 mlrd. so'm ajratish so'ralgan.**

Kengash majlisida ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun taqdim etilgan asoslovchi ma'lumot (hujjat)lar 3 - ilovaga muvofiq kiritilmoqda.

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF - 98 - son Farmoni 2 - ilovasi bilan tasdiqlangan "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 17 - bandiga muvofiq Fanlar akademiyasiga ilmiy kengashlar reytingini yuritish va ilmiy ishlarni tanlov asosida ekspertizadan o'tkazishda mutaxassislar mehnatiga haq to'lash uchun qo'shimcha ravishda **5 milliard so'm ajratish** hamda ajratilgan mablag'larni Oliy attestatsiya komissiyasiga muntazam yo'naltirib borish chora-tadbirlari uchun 2027-yildan boshlab har yili Davlat byudjeti mablag'lari, **2026-yilda Jamg'arma mablag'lari hisobidan** belgilangan.

Shuningdek, Fanlar akademiyasi prezidentining 2026-yil 9-iyunda 5 - 75 - son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF - 98 - son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosini Fanlar akademiyasida ta'minlash bo'yicha chora - tadbirlar rejasi"ning 9 - bandida ilmiy kengashlar reytingini yuritish va ilmiy ishlarni tanlov asosida ekspertizadan o'tkazishda mutaxassislar mehnatiga haq to'lash uchun qo'shimcha ravishda **5 milliard so'm mablag'ni 2026-yilda ajratish masalasini Fanlar akademiyasi Jamg'armasi Kengashida muhokama qilish va tasdiqlash** vazifasi belgilangan.

Kengash majlisida ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun kiritilmoqda.

s) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ - 390 - son qarori 2 - ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 14 - bandiga muvofiq Fanlar akademiyasiga 2026 - 2030-yillarda **"Xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga obunani tashkil etish"** ustuvor vazifasini amalga oshirish xarajatlarini moliyalashtirish manbai sifatida Jamg'arma mablag'lari belgilangan.

Ma'lumot o'rnida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ - 390 - son qaroriga 7 - ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamg'armasi mablag'lari yo'naltiriladigan xarajalar yo'nalishlari"ning 10-bandida **"Scopus", "Web of science" va boshqa ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lish xarajalarini qoplash hamda xalqaro tashkilotlarda vakillik xarajalarini moliyalashtirish"** xarajat yo'nalishi qayd etilgan.

Mazkur ustuvor vazifaning ijrosini ta'minlash maqsadida Fanlar akademiyasi prezidentining 2026-yil 3-iyundagi 22 - 73 - son buyrug'i bilan **"Xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarini o'rganish, Fanlar akademiyasi tizimi ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazalarini aniqlash va ular bo'yicha takliflar ishlab chiqish uchun **ishchi guruh** tarkibi"** tasdiqlandi.

Ishchi guruh tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarining funksional imkoniyatlari, foydalanish shartlari, obuna qiymati, texnik talablari va Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlari ehtiyojlariga muvofiqligi o'rganib chiqildi;

obuna uchun tavsiya etilayotgan ma'lumotlar bazalari, ularning afzalliklari va kutilayotgan natijalar bo'yicha asoslantirilgan xulosalar shakllantirildi.

Xalqaro ilmiy - texnik ma'lumotlar bazalarini o'rganish natijasida Fanlar akademiyasi faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazalari aniqlandi hamda ishchi guruh a'zolari tomonidan **Web of Science** (Clarivate) xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga obunani tashkil etish bo'yicha taklif shakllantirilgan. Mazkur obunaning dastlabki qiymati **100,0 ming AQSH dollarini** tashkil etadi.

Bu haqida batafsil axborot Fanlar akademiyasining 2026-yil 9-iyundagi 9/1256-363-son xati bilan O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasiga** kiritildi.

Kengash majlisida ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun taqdim etilgan asoslovchi ma'lumot (hujjat)lar 4 - ilovaga muvofiq kiritilmoqda.

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ - 390 - son qarori 2 - ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 1 - bandiga muvofiq Fanlar akademiyasiga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralari tomonidan 2026-yil dekabr oyida **"Xalqaro konsalting kompaniyalar ishtirokida ilm-fan uchun istiqbolli yo'nalishlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimini 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab**

chiqish” ustuvor vazifasini amalga oshirish xarajatlarini moliyalashtirish manbai sifatida Jamg’arma mablag’lari belgilangan.

Ma’lumot o’rnida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ - 390 - son qaroriga 7 - ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamg’armasi mablag’lari yo‘naltiriladigan xarajatlar yo‘nalishlari”ning 7-bandida “Akademik almashinuv dasturlarini tashkil etish, xalqaro ilmiy markazlar bilan qo‘shma ilmiy tadqiqotlar olib borish va **chet el mutaxassislarini jalb qilish**” xarajat yo‘nalishi qayd etilgan.

Mazkur ustuvor vazifaning ijrosini ta’minlash maqsadida Fanlar akademiyasi prezidentining 2026-yil 21-maydagi 19-67-son buyrug‘i bilan xarid komissiyasi va ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi hamda loyiha koordinatori belgilandi va ularning vazifalari taqsimlandi.

Amalga oshirilgan ishlar va bildirilgan takliflar yuzasidan tayyorlangan batafsil axborot ishchi guruh rahbarining 2026-yil 22-iyundagi 22/2-3-son xizmat xati bilan Fanlar akademiyasi prezidentiga kiritildi.

Hususan, xizmat xatida marketing tadqiqotlari natijalariga ko‘ra xaridning boshlang‘ich (dastlabki) narxi **256,4 ming AQSH dollari** miqdorida belgilanganligi shuningdek, qonunchilikka muvofiq byudjet buyurtmachisi tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining **olti ming baravaridan ortiq bo‘lgan xaridlar tender orqali amalga oshirilishi hamda xarid hujjatlari majburiy tartibda ekspertizadan o‘tkazilishi ma’lum qilingan.**

Shundan kelib chiqib, **tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon xarid hujjatlari belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilib**, natijalari bo‘yicha **ekspertiza organidan ijobiy xulosa olinganidan keyin** davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirilishi belgilangan.

Kengash majlisida ko‘rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun taqdim etilgan asoslovchi ma’lumot (hujjat)lar 5 - ilovaga muvofiq kiritilmoqda.

Kun tartibidagi masalalarni ko‘rib chiqib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Fanlar akademiyasining jamg’armasini tashkil etish va sarflangan mablag’lar to‘g‘risida axborot ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Fanlar akademiyasining jamg’arma daromad va xarajatlari yillik parametrlari(moliyaviy rejasi) **1-ilovaga;**

reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag’ ajratish tartibi **2-ilovaga** muvofiq **tasdiqlansin.**

3. Ishchi organning **2026-yil uchun** reagentlar, reaktivlar, xomashyo, sarflov materiallari va butlovchi qismlar bo‘yicha **dastlabki arizalarni** tashkilotlardan **2026-yil 28-iyuldan boshlab qabul qilish** to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

4. Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlari faoliyatini baholashning zamonaviy metrik tizimini yaratish va joriy etish doirasida quyidagilarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun **2,0 milliard so'm mablag' ajratilsin:**

Fanlar akademiyasining "Fan-portal" axborot tizimi elektron platformasini kompleks takomillashtirish;

ilmiy xodimlar va tadqiqotchilar faoliyati samaradorligini baholashning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimi modulini ishlab chiqish va joriy etish;

ilmiy tashkilotlar faoliyatini metrik baholash asosida reyting modulini ishlab chiqish va joriy etish.

5. Ilmiy kengashlar reytingini yuritish va ilmiy ishlarni tanlov asosida ekspertizadan o'tkazishda mutaxassislar mehnatiga haq to'lash xarajatlarini moliyalashtirish uchun **2026-yilda Jamg'arma mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda 5 milliard so'm** Oliy attestatsiya komissiyasiga belgilangan tartibda yo'naltirilsin.

Bunda, **Oliy attestatsiya komissiyasi:**

5 milliard so'm doirasida zarur mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblar buyurtmanomasini Fanlar akademiyasiga taqdim etsin;

mutaxassislar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq ishlar **2026-yil uchun to'liq amalga oshirilgandan so'ng foydalanilmagan yoki iqtisod qilingan mablag'larni** Jamg'armaning shaxsiy g'azna hisobvarag'iga qaytarilishini ta'minlasin.

6. **Xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga obunani tashkil etish** bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun **100,0 ming AQSH dollarining** to'lov amalga oshiriladigan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy valyuta kursi bo'yicha hisoblangan **so'mdagi ekvivalenti miqdorida mablag' ajratilsin.**

7. **Xalqaro konsalting kompaniyalar ishtirokida** ilm - fan uchun istiqbolli yo'nalishlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimini 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlarga **belgilangan tartibda xarid hujjatlari ekspertizadan o'tkazilib, ijobiy xulosa olinganidan so'ng** mablag' ajratilsin.

8. Ajratilgan mablag'lardan foydalanish **belgilangan tartibda** O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirilsin.

9. Mazkur yig'ilish bayonnomasi bilan belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Kengash a'zolari:**Ashurov Xatam Baxronovich****Jo'raboyev Ibroximjon Ilxomjonovich****Reymov Axmed Mambetkarimovich****Mirzayev Abdurazak Umirzakovich****Abdullayev Ikram Iskandarovich****Aripova Tamaraxon Uktamovna****Sadikov Ilxam Ismailovich****Tojibayev Komil Sharobitdinovich****Ismailova Janat Xamidovna****Miralimova Shaxlo Mirdjamolovna**

Sultanov Karim



Maxmudov Nizomitdin Mamadaliyevich



Maksudov Farxod Alijonovich



Kurbonova Nilufar Zairjanovna



Yarbabayeva Mukarram Mengboyevna



Nazirov Madalixon Abdusamat o'g'li



Taklif etilganlar:

Abdukarimov Abduvaxob Makambayevich



Yakubova Muxabbat Tadjibayevna



Karimova Feruza Abdusattarovna



Mahammatov Abulqosim Jumaboyevich



Taxirov Sarvarbek Matchanovich



Tilovov Normamat Begmamatovich



Bahodirov Akbarbek Bahriddinovich



Xajiyev Yulchivay Shermetovich



Djumayev Farxod Sadikovich



Muxamedov Adxam Ibraximovich



Kengash yig'ilish bayonnomasini mas'ul kotib M. Nazirov olib bordi.